YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINI BASHORAT QILISHDA MASHINALI O'QITISH ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	894
Saytov Kamiljan Begdullaevich, Bekniyazova Nurjamal Danaevna, Xudaynazarova Malika Orinbaevna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARI ASOSIDA YOG'-MOY SANOATI KORXONALARINI TRANSFORMATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI.....	903
Azlarova Dilnoza Axrorovna	
YASHIL OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	908
Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI: QUYOSH, SHAMOL VA GIDRO ENERGIYANI INVESTITSIYA VA DAROMAD TAHLILI.....	914
Sohibov Azizbek, Karimova Komila	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDA TURISTIK SIG'IMNI ILMIY ASOSDA BOSHQARISH: KO'KALDOSH MADRASASI TAJRIBASI.....	919
Ikromova Shaxinabonu, Qilichov Muhriddin	
DAVLAT XARIDLARIDA TCO-UMUMIY EGALIK QIYMATI ASOSIDA BAHOLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	926
Turabov Sarvar Abdumalikovich	
MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK YONDASHUV.....	930
Babayev Shavkat Bayramovich	

MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK YONDASHUV

Babayev Shavkat Bayramovich

TDIU Soliq va soliqqa tortish kafedrası professori, i.f.d.(DSc)

ORCID:0000-0002-1630-4784

e-mail: sh.babae@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini takomillashtirish masalalari empirik asosda ko'rib chiqilgan. Tahlil 2025-yil 25-dekabrda O'RQ-1108-sonli Qonun bilan kiritilgan o'zgarishlarni qamrab oladi: soliq stavkalarining 7 foizga indeksatsiya qilinishi, 1 m² minimal qiymatining oshirilishi va 2026-yildan boshlab ilk bor QQS tushumlarining mahalliy byudjetlarda qoldirilishi (Toshkent — 5%, viloyatlar — 20%). Toshkent shahrining 12 ta tumani bo'yicha o'tkazilgan ekonometrik tahlil natijasida tumanlar o'rtasidagi soliq salohiyatining yuqori variatsiya koeffitsiyenti (CV=0,793) aniqlandi. Mahalliy byudjet daromadlari 2024-yildagi 37,3 trln so'mdan 2026-yilda 68,6 trln so'mga (+84%) o'sishi prognoz qilinmoqda. Tadqiqot natijalari mol-mulk soliqlari/YaIM nisbati (~0,5%) OECD o'rtachasidan (1,9%) sezilarli darajada orqada qolayotganini ko'rsatadi va bozor qiymatiga asoslangan ommaviy baholash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjet, mol-mulk solig'i, yer solig'i, kadastr qiymati, soliq stavkalari, soliq bazasi, indeksatsiya, ko'chmas mulkni baholash, byudjet barqarorligi, QQS qoldiqlari, fiskal federalizm, variatsiya koeffitsiyenti.

Аннотация. В данной статье эмпирически рассматриваются вопросы совершенствования налогов на имущество и землю физических лиц в обеспечении финансовой устойчивости местных бюджетов в Республике Узбекистан. Анализ охватывает изменения, внесённые Законом № О'РҚ-1108 от 25 декабря 2025 года: индексацию налоговых ставок на 7%, повышение минимальной стоимости 1 м² и впервые с 2026 года — оставление части поступлений НДС в местных бюджетах (Ташкент — 5%, регионы — 20%). По результатам эконометрического анализа 12 районов г. Ташкента выявлен высокий коэффициент вариации налогового потенциала (CV=0,793). Прогнозируется рост доходов местных бюджетов с 37,3 трлн сумов в 2024 году до 68,6 трлн сумов в 2026 году (+84%).

Ключевые слова: местный бюджет, налог на имущество, земельный налог, кадастровая стоимость, налоговые ставки, налоговая база, индексация, оценка недвижимости, бюджетная устойчивость, остатки НДС, фискальный федерализм.

Abstract. This article empirically examines the issues of improving property and land taxes for individuals to ensure the financial stability of local budgets in the Republic of Uzbekistan. The analysis covers changes introduced by Law No. O'RQ-1108 of December 25, 2025: 7% indexation of tax rates, an increase in the minimum value per 1 m², and the retention of VAT revenues in local budgets (Tashkent — 5%, regions — 20%) for the first time from 2026. An econometric analysis of 12 districts of Tashkent city revealed a high coefficient of variation in tax potential (CV=0.793). Local budget revenues are forecast to grow from UZS 37.3 trillion in 2024 to UZS 68.6 trillion in 2026 (+84%).

Keywords: local budget, property tax, land tax, cadastral value, tax rates, indexation, real estate valuation, budget stability, VAT residuals, fiscal federalism.

KIRISH

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash hamda davlat byudjeti tizimining samaradorligini oshirishda jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari muhim o'rin egallaydi. W. Oates (1972) tomonidan ishlab chiqilgan klassik "fiskal federalizm" nazariyasiga muvofiq, mol-mulk soliqlari mahalliy byudjet daromadlarining samarali manbalaridan biri hisoblanadi, chunki ular geografik jihatdan immobil bo'lib, mahalliy hokimiyat organlari nazoratida samarali boshqarilishi mumkin [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PF-223-sonli Farmoni va 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-sonli qarori



bilan mahalliy byudjetlarning moliyaviy bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda [2; 3].

2026-yilda kuchga kirgan muhim islohotlardan biri — QQS tushumlarining bir qismini mahalliy byudjetlarda qoldirish tartibining joriy etilishidir. Unga ko'ra, Toshkent shahrida QQS tushumlarining 5 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda esa 20 foizi mahalliy byudjetlarda qoldiriladi [4]. Mazkur o'zgarish mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirishga xizmat qiladi va R. Bird (2010) tomonidan tavsiya etilgan "surrogate VAT" modeliga mazmunan mos keladi [5]. 2025-yil yakuniga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i qariyb 5,2 trln so'mga, mol-mulk solig'i esa qariyb 4,4 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagi asosiy muammolar bilan izohlanadi: birinchidan, kadastr qiymatining bozor qiymatidan sezilarli darajada pastligi; ikkinchidan, hududlar o'rtasida soliq bazasi bo'yicha tafovutlarning mavjudligi; uchinchidan, soliq qamrovining yetarli darajada emasligi; to'rtinchidan, mol-mulk soliqlarining YalMga nisbati OECD mamlakatlari o'rtacha ko'rsatkichidan pastligi. Xususan, Toshkent shahrida uy-joyning bir kvadrat metri kamida 500 AQSH dollarini tashkil etgan sharoitda, 1 m² uchun belgilangan minimal qiymat 292 AQSH dollariga teng bo'lib, bu bozor qiymatining taxminan 58,4 foizini tashkil etadi. Shuningdek, hududlar o'rtasidagi soliq salohiyati tafovuti variatsiya koeffitsiyenti orqali baholanganda CV=0,793 ni tashkil etadi. Mol-mulk soliqlarining YalMga nisbati esa taxminan 0,5 foiz bo'lib, OECD o'rtacha ko'rsatkichi — 1,9 foizdan sezilarli darajada pastdir.

2026-yildan boshlab Soliq qo'mitasi tomonidan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha hisobotlarni proaktiv tartibda avtomatik shakllantirish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu esa soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish, soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratish hamda mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini takomillashtirishning ilmiy-metodologik asoslarini ekonometrik yondashuv asosida ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

2024–2026-yillarda mahalliy byudjet daromadlarini empirik tahlil qilish;

Toshkent shahri tumanlari kesimida soliq salohiyati variatsiyasini baholash;

xalqaro tajribada mol-mulk soliqlarining mahalliy byudjetlar daromadlaridagi rolini o'rganish;

bozor qiymatiga asoslangan ommaviy baholash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mol-mulk soliqlari va mahalliy byudjet munosabatlari xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. R. Bird va E. Slack (2004) mahalliy daromadlar tizimida mol-mulk soliqlarining roli hamda kadastr qiymati metodologiyasini batafsil tahlil qilgan. Ularning fikricha, "mol-mulk solig'i faqat fiskal vosita emas, balki mahalliy hokimiyat va aholi o'rtasidagi shartnoma" sifatida ham namoyon bo'ladi [6]. W. Oates (1972) "fiskal federalizm" nazariyasi orqali mahalliy soliqlarning iqtisodiy samaradorligini asoslab bergan [1].

C. Tiebout (1956) "Tiebout Hypothesis" modelida fuqarolarning mahalliy soliqlar va xizmatlar nisbatiga ko'ra yashash hududini tanlashlari, ya'ni "voting with feet" konsepsiyasini ilgari surgan. Mazkur konsepsiya mol-mulk soliqlarining mahalliy darajadagi barqaror daromad manbai sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi [7]. M. Bahl va J. Linn (1992) rivojlanayotgan davlatlarda mol-mulk soliqlarining samaradorligini oshirish bo'yicha empirik tahlil olib borib, Lotin Amerikasi davlatlari, xususan, Kolumbiya va Chili tajribasi asosida mol-mulk soliqlari mahalliy daromadlarda 30–40 foizgacha ulush egallashi mumkinligini asoslagan [8]. Xalqaro Valyuta Fondi hisobotida ko'chmas mulkni soliqqa tortishda bozor qiymatiga asoslangan ommaviy baholash usulining, ya'ni Computer Assisted Mass Appraisal — CAMA tizimining afzalliklari ko'rsatib o'tilgan [9].

O'zbekistonlik iqtisodchilardan A. Vahobov va T. S. Malikov mol-mulk soliqlari mahalliy byudjet daromadlarining barqaror manbai bo'lganligi sababli ularni takomillashtirish strategik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [10]. T. S. Malikov soliq stavkalarining indeksatsiya qilinishi va kadastr bazasining kengaytirilishi mahalliy byudjet barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini asoslab bergan [11]. M. Salaev hududiy soliq salohiyatini baholashda ekonometrik modellashtirishdan foydalanish zarurligini qayd etgan [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan:

Tavsifiy statistik tahlil. Mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va dinamikasini o'rganish uchun o'rtacha qiymat, standart og'ish va variatsiya koeffitsiyenti (CV) hisoblandi. Variatsiya koeffitsiyenti formulasi:

$$CV = \sigma / \mu \times 100\%$$

Bu yerda σ – standart og‘ish; μ – o‘rtacha qiymat. $CV > 0,33$ yuqori variatsiyani, $CV < 0,1$ past variatsiyani bildiradi.

Ekstrapolyatsiya metodi. 2026-yil prognoz qiymatlari quyidagi formula yordamida hisoblandi: $V_{\{2026\}} = V_{\{2025\}} \times k_{\text{indeks}}$, bu yerda $k_{\text{indeks}} = 1,07$ (PQ-388-sonli qarorga muvofiq 7% indeksatsiya).

Qiyosiy tahlil. Toshkent shahrining 12 ta tumani kesimida soliq salohiyati va hududiy farqlanishni baholash uchun klaster tahlili qo‘llanildi.

Xalqaro qiyosiy tahlil. Mol-mulk soliqlarining YaIMga nisbati 8 ta davlat — O‘zbekiston, Qozog‘iston, Rossiya, Turkiya, Polsha, AQSH, Germaniya va Fransiya bo‘yicha taqqoslandi.

Empirik baza sifatida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Kadastr agentligi, Toshkent shahar soliq boshqarmasining 2024–2026-yillar bo‘yicha rasmiy ma‘lumotlari, shuningdek, OECD Revenue Statistics 2025 va IMF materiallaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq stavkalaridagi o‘zgarishlar tahlili. 2026-yilda kuchga kirgan O‘RQ-1108-sonli Qonun bilan jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha bir qator muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Asosiy o‘zgarishlar — soliq stavkalarining 7 foizga indeksatsiya qilinishi va 1 kvadrat metr uchun minimal qiymatning oshirilishidan iborat. Jumladan, Toshkent shahrida ushbu qiymat 3,3 mln so‘mdan 3,53 mln so‘mga, viloyat markazlarida 2,2 mln so‘mdan 2,35 mln so‘mga, qolgan hududlarda esa 1,3 mln so‘mdan 1,39 mln so‘mga oshirildi. Mazkur o‘zgarishlarning umumlashtirilgan ko‘rinishi 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk va yer soliqlari stavkalarining 2025–2026-yillardagi o‘zgarishi

Soliq turi va obyekt	2025-y. stavkasi	2026-y. stavkasi	O‘zgarish
Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘i	1,5%	1,5%	o‘zgarmadi
Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i (200 m ² gacha)	0,34%	0,36%	+5,9%
Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i (>500 m ²)	0,6%	0,64%	+6,7%
Yuridik shaxslar yer solig‘i (pasaytirilgan koeff.)	0,45%	0,48%	+6,7%
Toshkent shahri 1 m ² minimal qiymat	3,3 mln so‘m	3,53 mln so‘m	+7,0%
Viloyat markazlari 1 m ² minimal qiymat	2,2 mln so‘m	2,35 mln so‘m	+6,8%
Boshqa shaharlar 1 m ² minimal qiymat	1,3 mln so‘m	1,39 mln so‘m	+6,9%
Yer solig‘i bazaviy stavkasi (jis. shaxslar)	100% (baza)	107%	+7,0%
Soliq summasi cheklovi (1,3 baravar)	Saqlangan	Saqlangan (PQ-388)	o‘zgarmadi

1-jadvaldagi ma‘lumotlardan ko‘rinishicha, jismoniy shaxslar bo‘yicha barcha asosiy soliqlar 7 foizga indeksatsiya qilingan, ammo 1,3 baravarli cheklov 2026-yilda ham saqlab qolingan (PQ-388-sonli qaror). Yuridik shaxslar uchun asosiy stavka (1,5%) saqlab qolingan. 2026-yilda yangi joriy etilgan muhim me‘yorlardan biri — yuridik shaxslar uchun mol-mulk va yer solig‘i imtiyozlari shartlarining kuchaytirilishidir. Unga ko‘ra, kompaniya kamida 3 nafar xodimga ega bo‘lishi va ularning ish haqi MHTEKMning 2 baravaridan (2,542 mln so‘m) kam bo‘lmasligi shart [13].


Mahalliy byudjet daromadlari dinamikasi. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2026-yilda mahalliy byudjetlar uchun jami 68,6 trln so‘m daromad shakllanmoqda. Bu 2024-yilga nisbatan 1,84 baravar yoki 84 foiz o‘sishni anglatadi. Daromadlar tarkibi quyidagicha: JShDS — 21,0 trln so‘m, ya‘ni 50 foiz ulush; mol-mulk solig‘i — 4,4 trln so‘m; yer solig‘i — 5,2 trln so‘m; QQS qoldiqlari — 18,5 trln so‘m; boshqa daromadlar — 19,5 trln so‘m. Ushbu ma‘lumotlar 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Mahalliy byudjetlar daromadlarining manbalar bo'yicha tarkibi va dinamikasi (2024–2026-yy., trln so'm)¹

1-rasmdan ko'rinishicha, 2026-yilda mahalliy byudjetlarda QQS qoldiqlari yangi qator sifatida paydo bo'lib, jami daromadlarning 27 foizini tashkil etadi. Bu mahalliy hokimliklarning fiskal mustaqilligini sezilarli darajada mustahkamlovchi muhim o'zgarish hisoblanadi va R. Bird (2010) tomonidan tavsiya etilgan "surrogate VAT" modeliga mos keladi [5]. Shu bilan birga, jami daromadlar 2024-yildagi 37,3 trln so'mdan 2026-yilda 68,6 trln so'mga (CAGR=35,5%) oshib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun keng moliyaviy resurs bazasini yaratmoqda.

Xalqaro qiyosiy tahlil. Mol-mulk soliqlarining YaIMga nisbati bo'yicha xalqaro taqqoslash O'zbekistonning bu boradagi salohiyatini ko'rsatadi. OECD Revenue Statistics 2025 hisobotiga muvofiq, Fransiyada ushbu ko'rsatkich 4,3 foizni, AQSHda 2,7 foizni, Polshada 1,3 foizni tashkil etadi, OECD davlatlari o'rtachasi esa 1,9 foizga teng [9]. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich atigi 0,5 foizni tashkil etib, OECD o'rtachasidan 3,8 baravar past. Bu fiskal salohiyatdan yetarli darajada foydalanilmayotganini bildiradi. Xalqaro taqqoslash 2-rasmda taqdim etilgan.




2-rasm. Mol-mulk soliqlari/YaIM nisbati: O'zbekiston va xorijiy davlatlar (2026-y., %)²

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. *2026-yil – tasdiqlangan byudjet hujjatlari (O'RB-1105) va O'RB-1108 asosida prognoz.

2 OECD Revenue Statistics 2025 (kategoriya 4100 — Recurrent taxes on immovable property); O'zbekiston ma'lumoti – Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2026-y. byudjeti asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Toshkent tumanlari kesimida tahlil. Toshkent shahri tumanlari kesimida soliq salohiyatini o'rganish maxsus ahamiyatga ega. 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-sonli Prezident qarori bilan jismoniy shaxslar mol-mulk va yer soliqlari summasi 2025-yilga nisbatan 1,3 baravaridan oshmaslik prinsipi 2026-yilda ham saqlangan³. Variatsiya koeffitsiyenti $CV=0,793$ ni tashkil etadi, bu juda yuqori variatsiyani ko'rsatadi ($CV>0,33$) – tumanlar o'rtasidagi soliq salohiyati sezilarli farqlanadi (3-rasm).




3-rasm. Toshkent shahri tumanlari bo'yicha jismoniy shaxslar mol-mulk va yer soliqlari (2025–2026-yy, mln so'm)⁴

3-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, eng yuqori soliq salohiyatiga Yangiheyot tumani (6 545,6 mln so'm), Bektemir tumani (3 965,2 mln so'm) va Yunusobod tumani (3 717,9 mln so'm) ega. Eng past ko'rsatkichni Mirobod tumani (31,0 mln so'm) namoyon etadi. Yangiheyot va Mirobod tumanlari o'rtasidagi tafovut 211 baravarga teng. Bu tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovut va aholi zichligidagi farqlar bilan izohlanadi. Mazkur natijalar mahalliy soliq siyosatini differensial yondashuv asosida shakllantirish zaruratini ko'rsatadi. Bunda mahalliy Kengashlar 0,5–2,0 oralig'ida koeffitsiyentlar joriy etishi mumkin.

4.5. Mahalliy byudjet mexanizmi. Tadqiqot natijalariga asosan, mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va taqsimlashning yangi mexanizmi sxema shaklida ifodalandi. 2026-yilgi mexanizmning eng muhim xususiyati — ilk bor QQS tushumlarining bir qismi mahalliy byudjetlarda qoldirilishidir (1-chizma).


TUMAN VA SHAHARLAR BYUDJETIGA TO'LIQ (100%) O'TKAZILADIGAN SOLIQLAR



2026-YIL YANGILIGI: QQS TUSHUMLARI MAHALLIY BYUDJETLARDA



QISMAN (KAMIDA 50%) MAHALLIY BYUDJETGA O'TKAZILADIGAN SOLIQLAR



1-chizma. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va taqsimlash mexanizmi (2026-y. yangiliklari)

3 PQ-388-sonli qarorga muvofiq, 2026-yilda 1,3 baravarli cheklov mexanizmi 2025-yildagi kabi saqlangan, bu soliq yukini bir tekisda taqsimlash maqsadida qo'llanilmoqda.

4 Toshkent shahri Soliq boshqarmasi va Kadastr agentligi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi (2026-y. PQ-388 prezident qarorining 1,3 baravarli cheklov prinsipi va O'RQ-1108 ning 7% indeksatsiyasi qo'llangan). Variatsiya koeffitsiyenti $CV=\sigma/\mu$ formulasi bo'yicha hisoblangan.



bilan)⁵

1-chizmada keltirilgan mexanizmning amaliy ahamiyati shundaki, u mahalliy byudjetlar moliyaviy bazasini sezilarli darajada mustahkamlash imkonini beradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2026-yilda QQS qoldiqlari (5%/20%) mexanizmining joriy etilishi natijasida mahalliy byudjet daromadlari 2025-yilga nisbatan 53,8 foizga oshib, 68,6 trln so'mga yetishi kutilmoqda, bu o'z navbatida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun moliyaviy resurs bazasini sezilarli kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan empirik tahlil natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, 2026-yildan boshlab kiritilgan o'zgarishlar, ya'ni soliq stavkalarining 7 foizga indeksatsiya qilinishi, 1 m² minimal qiymatining oshirilishi, kamida 50 foiz JShDSning va ilk bor QQS qoldiqlarining mahalliy byudjetga o'tkazilishi mahalliy byudjet daromadlari bazasini 2024-yilga nisbatan 1,84 baravar kengaytirdi (CAGR=35,5%). Ikkinchidan, Toshkent shahri tumanlari kesimida variatsiya koeffitsiyenti CV=0,793 ni tashkil etdi. Bu soliq salohiyatining hududlar bo'yicha sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Uchinchidan, mol-mulk soliqlarining YaIMga nisbati taxminan 0,5 foizni tashkil etib, OECD o'rtacha ko'rsatkichidan 1,9 foizga nisbatan 3,8 baravar pastdir. Bu esa mavjud fiskal salohiyatdan yanada samarali foydalanish imkoniyati mavjudligini bildiradi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

2026–2030-yillar mobaynida ko'chmas mulkni bozor qiymatiga asoslangan ommaviy baholash tizimini, ya'ni Computer Assisted Mass Appraisal — CAMA tizimini IMF tavsiyalariga muvofiq bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Bu tizim mol-mulk soliqlarining YaIMga nisbatini 0,5 foizdan 1,5–2,0 foizgacha oshirish imkonini beradi.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga muvofiq differensial koeffitsiyentlarni joriy etish, ya'ni 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan oraliqda qo'llash taklif etiladi. Bu yondashuv Tieboutning "voting with feet" modeli asosida fuqarolarning hududni tanlash erkinligi va mahalliy xizmatlar bilan soliqlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qiladi.

2026-yilda joriy etilgan QQS qoldiqlari, ya'ni 5 foiz va 20 foizlik mexanizm samaradorligini muntazam monitoring qilish hamda kelgusi yillarda ushbu ulushni oshirish imkoniyatlarini R. Birdning "surrogate VAT" modeli asosida empirik tahlil qilish zarur.

Soliq qo'mitasi va Kadastr agentligining axborot tizimlarini integratsiya qilish hamda onlayn monitoring tizimini yaratish lozim. Bu undiruv samaradorligini taxminan 15 foizga oshirish imkonini beradi.

2026-yildan amal qilayotgan proaktiv soliq hisoboti tartibini barcha mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha to'liq joriy etish hamda sun'iy intellekt asosidagi qiymat baholash modellaridan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi:

- viloyatlar va tumanlar bo'yicha panel ma'lumotlar tahlilini amalga oshirish;
- ko'chmas mulk bozori va kadastr qiymati o'rtasidagi muvofiqlikni ekonometrik modellashtirish;
- iqtisodiy shoklarning mahalliy byudjet barqarorligiga ta'sirini SVAR modeli orqali baholash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oates W. E. *Fiscal Federalism*. — New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972. — 256 p.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PF-223-sonli "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-sonli "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda O'RBQ-1105-sonli "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni.
5. Bird R. M. Subnational Taxation in Developing Countries: A Review of the Literature // *Journal of International Commerce, Economics and Policy*. — 2010. — Vol. 1, No. 1. — P. 139–161.
6. Bird R. M., Slack E. *International Handbook of Land and Property Taxation*. — Cheltenham: Edward

⁵ Manba: muallif tomonidan O'RBQ-1105 va O'RBQ-1108-sonli Qonunlar, PQ-388-sonli qaror va Soliq Kodeksi qoidalariga asosida 2026-yilgi yangiliklarni hisobga olib ishlab chiqilgan.



Elgar Publishing, 2004. — 320 p.

7. Tiebout C. M. A Pure Theory of Local Expenditures // *Journal of Political Economy*. — 1956. — Vol. 64, No. 5. — P. 416–424.

8. Bahl R., Linn J. F. *Urban Public Finance in Developing Countries*. — Oxford: Oxford University Press, 1992. — 553 p.

9. Norregaard J. Taxing Immovable Property: Revenue Potential and Implementation Challenges // *IMF Working Paper*. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2013.

10. Vahobov A. V., Malikov T. S. *Davlat moliyasi: darslik*. 3-nashr. — Toshkent: Noshir, 2025. — 768 b.

11. Malikov T. S. Mahalliy byudjet daromadlarini takomillashtirish masalalari // *Iqtisodiyot va moliya*. — 2025. — №3. — B. 28–39.

12. Salayev M. Hududiy soliq salohiyati va uni baholash metodologiyasi // *O'zbekiston iqtisodiyoti axborotnomasi*. — 2024. — №4. — B. 45–58.

13. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda O'RQ-1108-sonli "Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.

14. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Yangi tahrir. 467–479-moddalar. — Toshkent: Adolat, 2025. — 612 b.

15. OECD. *Revenue Statistics 2025: Disentangling Personal Income Tax Revenue in OECD Countries*. — Paris: OECD Publishing, 2025. — DOI: 10.1787/3a264267-en.

16. Toshkent shahri Soliq boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari. — Toshkent shahar Soliq boshqarmasi, 2024–2026-yillar.

17. Babayev Sh. B. Byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tushumlarini prognoz qilishni baholash modellari tahlili // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. — 2024. — №9. — B. 958–963.

18. Khudoykulov S. K., Babaev Sh. B. Directions for Improving the Process of Forecasting the Property Tax of Individuals // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. — 2022. — Vol. 3, Issue 6.

19. Xudoyqulov S. K. Soliqlarni prognoz qilishning zaruriy omillari va uning tamoyillari // *Xalqaro moliya va hisob* ilmiy elektron jurnali. — 2018. — №3.

20. Babaev Sh. B. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognozlashtirishda soliq riskini baholashni takomillashtirish // *Moliya va bank ishi* elektron ilmiy jurnali. — Toshkent: BMA, 2020. — №2.

21. Babayev Sh. B. Perfection of Methodology of Forecasting of Tax Revenues from Physical Persons: Foreign Experience // *Theoretical & Applied Science*. — Philadelphia, USA, 2019. — №04(72). — P. 526–531.

22. Babaev Sh. B. Ways to Improve Forecasting of Property Tax Collected from Individuals // *JournalNX — A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. — 2023. — Vol. 9, Issue 6. — P. 191–197.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100